



## FOLKLORSHUNOSLIK TARIXI VA RIVOJI ( o‘zbek va italyan folklori misolida)

**Baxora Ergashova**

*O‘zDJTU Italyan tili tarjima nazariyasi  
va amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi  
ergashova.baxoram@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada folklor san’ati tarixi va uning rivojlanish bosqichlari, folklorshunoslikning fan sifatida o‘rganilishi haqida tahlillar keltirilgan. Asosan, italyan va o‘zbek folklorshunosligi hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘xshash va farqli jihatlari tasniflangan.

**Kalit so‘zlar:** folklor, folklorshunoslik, xalq an’analari, freydizm, neomifologizm, ertaklar.

**Аннотация:** В статье представлены анализы истории фольклорного искусства и этапов его развития, а также изучения фольклористики как науки. В основном классифицированы итальянская и узбекская фольклористика, а также их уникальные особенности, сходства и различия.

**Ключевые слова:** фольклор, фольклористика, народные традиции, фрейдизм, неомифологизм, сказки.

**Abstract:** The article presents analyses of the history of folk art and its stages of development, as well as the study of folklore as a science. The focus is mainly on the classification of Italian and Uzbek folklore studies, highlighting their unique characteristics, similarities, and differences.

**Keywords:** folklore, folklore studies, folk traditions, Freudianism, neomythologism, fairy tales.

Insoniyat yaralibdiki, uning ijtimoiylashuvi va taraqqiyoti rivojida qator omillar o‘z natijasini ko‘rsatib kelmoqda. Dunyo xalqlarining etnografik xususiyatlari va xilma-xilligini namoyish etuvchi unsurlardan biri, bu folklor san’ani sanaladi. Folklor og‘zaki so‘z san’ati hisoblanib, u o‘zida ma’lum bir millatning asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib kelayotgan qadriyatlarini, urf-odatlarini, rasm-rusmlari, yashash tarzi, ish faoliyati, qisqa qilib aytganda butun o‘zligini ko‘zgudek ko‘rsatib beruvchi asarlar yig‘indisidir. “Folklor” atamasi ilk bor XIX asr ingliz tadqiqotchisi va arxeologi Viliyam Toms tomonidan 1846-yilda qo‘llangan bo‘lib, “folk”-xalq va “lore”- bilim, donolik, donishmandlik ya’ni “xalq bilimi”, “xalq donoligi”, “xalq donishmandligi” demakdir. Bu atama ispan, italyan, fransuz, Portugal kabi yangi lotin tillarida(neolatine) “demologia-demologiya” deb ham qo‘llaniladi. Xalq og‘zaki ijodini o‘rganuvchi, tadqiq qiluvchi, rivojlanishiga zamin yaratuvchi fan esa, fanlar katalogida folklorshunoslik deb nomlanadi. Ushbu san’at turi ma’lum bir qonun-qoidalarga asoslanmagan bo‘lib, u og‘izdan-og‘izga o‘tib borgan sayin o‘zining asl haqiqatidan biroz yiroqlashadi, ya’ni kimdir unga yangi qismlarni qo‘shib, mazmunni yanada kengaytirib ko‘rsatsa, qaysidir zamonning shaxslari uning hajmini ham, ma’nosini ham tor holatda keltirib o‘tadilar. Og‘zaki



nutqning bir bo‘lagi hisoblangani uchun ham beqaror va o‘zgaruvchidir. Ilg‘or g‘oyaviylik folklor xalqchilligining negizi sanaladi. "Bir mintaqa, mamlakat yoki etnik guruhning xalq an‘analari majmuasi bo‘lib, bu majmua ularning madaniy ifodasi bo‘lgan turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi, ya‘ni urf-odatlar, afsonalar, e‘tiqodlar va diniy yoki sehrlil amaliyotlar, hikoyalar, maqollar va og‘zaki an‘analar orqali avloddan-avlodga o‘tib kelgan barcha narsalarni o‘z ichiga oladi: xalq tomoshalari, xalq bayramlari; keng ma‘noda, bir vaziyatning, joyning yoki muhitning o‘ziga xos, rang-barang ko‘rinishi (shuningdek, salbiy ma‘noda, ortiqcha rang-baranglik va xos xarakterlarga nisbatan)."1 Qadimgi sivilizatsiyalarda, masalan, Mesopotamiya, Misr, Yunoniston va Rimda, afsonalar va rivoyatlar ta‘lim va madaniy o‘zlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Xudolar, devlar va mifologik hikoyalar ijtimoiy, axloqiy va diniy qadriyatlarni aks ettirardi. Bu rivoyatlar Gomerning Iliada va Odissey kabi epik she‘rlari orqali avloddan avlodga o‘tgan bo‘lib, ular tarix, fantaziya va ramziy ma‘nolarni mujassamlashtirgan holda, umumiy hikoyalar asosini yaratgan. Osiyo, Afrika va Amerikada ham folklor mahalliy madaniy o‘zlikni shakllantirishda markaziy rol o‘ynagan. Afrikada, ajdodlar va tabiat ruhlari haqidagi hikoyalar hanuzgacha og‘zaki tarzda avloddan-avlodga o‘tib, turli qabilalarning an‘analari va e‘tiqodlarini saqlab qolmoqda. Osiyoda, hind, xitoy va yapon mifologiyasi hikoyalari xalq ijodi va diniy madaniyatga ta‘sir ko‘rsatishda davom etmoqda, masalan, fil xudosi Ganesha, xitoy ajdarlari va yōkai deb ataluvchi yapon ruhlari kabi obrazlar orqali ularning qanchalar ahamiyatli ekanligini bilishimiz mumkin.

Amerikada, ham Kolumb ixtirosidan avvalgi davrlardagi madaniyatlarda (masalan, aztek, maya va inka) ham tub amerikaliklar jamoalarida folklor koinot, insoniyat va hayvonot olamining paydo bo‘lishini tushuntiruvchi hikoyalar orqali ajdodlarning donoligini avlodlarga yetkazishda muhim rol o‘ynagan. Yevropaliklar kelganidan so‘ng, mahalliy an‘analar ko‘pincha mustamlakachilar madaniyati bilan aralashib, yangi afsonalar va folklor amaliyotlarini yaratdi.

O‘rta asrlarda, Yevropada folklor og‘zaki an‘ana orqali yanada rivojlandi. Ritsarlar, ajdarlar, sehrgarlar va jodugarlar haqidagi hikoyalar qishloqlarda farzandlarni tarbiyalash va ko‘ngil ochish maqsadida so‘zlangan. Qirol Artur va Dumaloq stol ritsarlari haqidagi afsonalar Yevropa xalqlari madaniyatining ajralmas qismiga aylandi. XIX asrda, Yevropada romantizm tarqalishi bilan, xalq an‘analari va folklorning milliy va madaniy o‘zlikning haqiqiy ifodasi sifatida ahamiyati qayta kashf etildi. Bu davrda, shuningdek, raqslar, qo‘shiqlar va an‘anaviy kiyimlar ham milliy o‘zlik ramzlariga aylandi va mahalliy bayram va tantanalarda namoyish etila boshlandi. Xuddi shunday, aka-uka Grimm va Hans Kristian Andersenning qadimgi afsonalarga asoslangan ertaklari o‘sha davr xalq og‘zaki ijodini saqlab qolishga va olamga tarqatishga yordam berdi. M. Gorkiy buning mazmunini shunday izohlaydi: "Folklor eng qadimgi davrlardan boshlab o‘ziga xos ravishda hamma vaqt tarixga hamroh bo‘lib keladi." Belinskiy aytganidek, folklorida "mashhur nomlar yo‘q, chunki uning muallifi xalqdir. Uning navqiron xalq yoki qabila ichki va tashqi hayotining jimjimalarisiz va aniq tasvirlangan oddiy va sodda qo‘shiqlarini kim to‘qiganligini hech kim bilmaydi..." Guvohi bo‘lganimizdek folklor asarlari



boshlanishida yakka ijodkor tomonidan yaratilgan bo'lsa-da, zamonlar osha kishilar jamoasi tomonidan takrorlanib kollektiv ijod turiga aylanib boradi. A. Potebnya fikricha, folklor xotira manbaidan, aniqrog'i xotiraning og'izdan og'izga ko'chib yurishidan tug'iladi. Folklorshunoslikka turli davrlarda va turli mamlakatlarda etnografiya, adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, antropologiya va sotsiologiyaning bir qismi sifatida qaralib kelingan. Keyinchalik xalq san'atini (xalq og'zaki ijodi, musiqa folklori, raqsi, teatri, sirki kabi) o'rganuvchi mustaqil va maxsus fan sifatida rivojlanadi. Filologiya va san'atshunoslik fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Folklorshunoslikning asoslari qadimgi dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi. Qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlari, turli urf-odat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor to'g'risidagi dastlabki fikrlari Folklorshunoslik uchun muhimdir. Turkiy xalqlarda folklor materiallarini yozib olish bo'yicha dastlabki tajribalar 11-asrdan boshlab ko'zga tashlanadi (Maxmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi folklor materiallari). Shu bilan birga, yozuvchi va shoirlar tomonidan ertaklar, miflar, afsona va rivoyatlarni qayta ishlash jarayoni ham boshlandi. 18-asr va 19-asr boshlarida folklorga nisbatan ilmiy qiziqishning kuchayishi, xalq og'zaki ijodi materiallarini to'plash va nashr etish jadal rivojlanishi bilan bog'liq holda uni chinakamiga o'rganish boshlandi. Natijada Yevropa va Rossiya folklorshunosligida turli yo'nalishlar, maktablar yuzaga keldi. Shunday maktablardan biri mifologik maktab bo'lib, folklor janrlarining yuzaga kelishini qadimgi miflarga bog'laydi. Ma'rifatparvarlar esa, folklorning demokratik va sinkretik xarakterini, undagi umuminsoniy va milliy xususiyatlar birligini o'rganishga alohida e'tibor berdilar.

19-asr o'rtalaridan boshlab folklori ilmiy prinsiplar asosida to'plash va nashr etishning yanada kuchayishi Folklorshunoslikda yangi yo'nalish — "sayyor syujetlar" nazariyasini yuzaga keltirdi. Bu nazariya tarafdorlari o'xshash syujet, motiv va obrazlardagi murakkab jarayonlarni hisobga olmay, ularni bir xalqdan ikkinchi xalqning shunchaki o'zlashtirishi, deb talqin qildilar. Antropologik maktab tarafdorlari esa, xalq ijodidagi o'xshash hodisalarni turli millat va irqning umumiyliigi bilan izohlamochi bo'ldilar. Ijtimoiy hodisalarni bunday biologik qonunlar asosida tushuntirishga urinish hozirgi zamon Folklorshunosligida turli-tuman oqimlarni (freydizm, neomifologizm va boshqalarni) yuzaga keltirdi. Folklori xalq tarixi bilan bog'liq holda o'rganishda tarixiy maktab vakillari katta ishlar qildilar. Folklor asarlari syujetlarining tarixiy-geografik tarqalish maydonlarini belgilash, ularni tasniflash, ma'lum bir qolipga solish va kategoriyalashda fan maktabi vakillari ham birmuncha yutuqlarga erishdilar. Yevropada demologiya, ya'ni e'tiqodlar, xurofotlar va xalq an'analarini o'rganish, asrlar davomida, ayniqsa XIX va XX asrlarda, ko'plab italiyalik olimlarning qiziqishiga sabab bo'lgan. Shu nuqtayi nazarda, italyan lingvistlari va antropologlari turli mintaqalardagi folklor va madaniy an'analarni hujjatlashtirish va tahlil qilish bo'yicha asosiy tadqiqotlar olib borganlar. Bunday tilshunoslarning ba'zilar haqida ma'lumotlar keltirib o'tamiz: Giuseppe Pitre italyan folklorshunosligining asoschilaridan biri bo'lib, XIX asrda yashab ijod qilgan hamda hayotining katta qismini Sitsiliyaning xalq an'analarini to'plash va o'rganishga bag'ishlagan. Uning eng muhim asari "Biblioteca delle tradizioni





popolari siciliane” (Sitsiliya xalq an’analari kutubxonasi) bo‘lib, bu o‘zida hikoyalar, qo‘shiqlar, maqollar, marosim matnlari kabi manbalarni jamlagan keng miqyosdagi to‘plamdir. Pitre xalq an’analarini tizimli o‘rganishda peshqadam bo‘lgan va uning ishlari Italiyada zamonaviy demologik tadqiqotlar uchun asos yaratgan. Alessandro D’Ancona filolog, adabiyotshunos va folklorshunos bo‘lib, u o‘z tadqiqotlarida afsonalar va italyan xalq an’analarini tahlil qilish orqali folklorshunoslikka hissa qo‘shdi. O‘z tadqiqotida D’Ancona ertaklar, xalq hikoyalari va o‘rta asr Uyg‘onish davri italyan adabiyoti o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘rganib, og‘zaki hikoyalardan qanday qilib yozma adabiyot yaratish mumkinligini ko‘rsatib berdi.

Domenico Komparetti, italiyalik lingvist va filolog, uning tadqiqotlari, asosan, xalq adabiyoti va miflarni qamrab oladi. 1891 yilda yozgan “Il Kalevala o la poesia tradizionale dei Finni” (Kalevala yoki Finlarning an’anaviy she’riyati) asari bilan Komparetti xalq an’analarini o‘rganishda taqqoslash usulini qo‘lladi va turli madaniyatlarda hikoyalar va afsonalarning umumiy ildizlarini tushunishga harakat qildi. Yana bir muhim tilshunos olimlardan biri Paolo Toschi italyan demologiyasi va folklor tadqiqotlariga hissa qo‘shdi. Italiyan adabiyoti o‘qituvchisi va xalq an’analarini o‘rganuvchi sifatida, Toschi afsonalar, ertaklar va italyan milliy marosimlarini tahlil qilish va kataloglash bilan shug‘ullandi. Uning *Le origini del teatro italiano* (Italyan teatrining kelib chiqishi) asari teatr namoyishlarining folklor ildizlarini o‘rganadi va xalq teatrini qadimiy an’analarga va jamoaviy marosimlarga bog‘laydi. Ushbu olimlar italyan folklorshunosligi rivojiga muhim hissa qo‘shdilar, turli mintaqalardagi xalqlar an’analarini hujjatlashtirdilar va tahlil qildilar. Ularning tadqiqot ishlari nafaqat behisob madaniy merosni saqlab qolishga yordam berdi, balki Italiyadagi madaniy ildizlar va ularning kengayish dinamikasini yaxshiroq tushunishga imkon yaratdi, milliy o‘zlikni shakllantirishga va xalq e’tiqodlarini kengroq nuqtayi nazardan o‘rganishga hissa qo‘shdi.

O‘zbek folklori namunalarini to‘plash va nashr etish ishlari XIX asrning 2-yarmidan boshlab ahyon-ahyonda ko‘zga tashlanib tursada uni chinakamiga to‘plash va nashr etish ishlari 1919-yildan yo‘lga qo‘yila boshlandi. Yangicha yo‘nalishda shakllana boshlagan o‘zbek Folklorshunosligining dastlabki bosqichi (1918—1925 yillar) o‘sha davr sharqshunosligi va o‘lkashunosligi erishgan yutuqlarni izchillik bilan o‘zlashtirishga intilish, folklor materiallarini jadal jamlash, xalq hayoti va maishiy turmushining barcha tomonlariga kirib borishga urinish bilan ajralib turadi. Dastlabki vaqtlarda “el adabiyoti”, “xalq adabiyoti”, “og‘zaki adabiyot”, “og‘zaki ijod” deb yuritilib kelingan o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi ilk bor H.Zarif (1934-35 yillar) tomonidan qo‘yilgan “folklor”, “o‘zbek folklori” sifatida keng ommalashdi. Yillar davomida shakllangan maktablar silsilasida Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Po‘lkan shoir kabi atoqli dostonchilar faoliyati shakllana boshladi. Ular ijrosida birinchi marta epik asarlar to‘la yozib olina boshladi, xalq san’atkorlariga ijodkor sifatida qarab, original kuzatishlar olib borildi. 30-yillarda Folklorshunoslikga B.Karimov, Sh.Rajabov, M.Afzalov, M.Alaviya, Z.Husainova kabi folklorshunoslar kelib qo‘shildilar.. Musiqa xalq san’atini o‘rganishda esa V.Uspenskiy, Ye.Romanovskaya, N.Mironov, Ilyos Akbarov, Yunus Rajabiy va boshqalarning hissalari katta. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarida ilgari surilgan



ezgu g‘oyalar xalq pedagogikasi bilan chambarchas bog‘liqligi katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari o‘zbek folklori elshunoslik (etnografiya), shevashunoslik (dialektologiya), til va adabiyot tarixi, madaniyatshunoslik, musiqa, adabiyot nazariyasi, tilshunoslik, tarix, arxeologiya kabi bir qator fanlar bilan ham uzviy aloqada bo‘ladi” 3. Folklorning turli janrlariga bag‘ishlangan monografiyalarning yaratilishi, "O‘zbek folklori ocherklari", "O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar" nomida turkum to‘plamlarning yuzaga kelishi, "Uzbek xalq ijodi", "Bulbul taronalari", "Alpomish" dostonining akademik nashri kabi ulkan nashrlarning amalga oshirilishi bunga yorqin misoldir. Bu ishlarni amalga oshirishda H.Razzoqov, T.G‘oziboyev, O.Sobirov, J.Qobulniyozov, M.Saidov, M.Murodov, A.Qahhorov, X.Egamov, T.Mirzayev, K.Imomov, G‘.Jalolov, B.Sarimsoqov, O.Safarov, S.Ro‘zimboyev, M.Jo‘rayev, A.Musaqulov kabi folklorshunoslarning hissasi nihoyatda katta bo‘ldi4. Bugungi kunda bir qator yosh tadqiqotchilar ham o‘z ilmiy ishlarini folklorshunoslikning turli xususiyatlari va turlarini o‘rganishga, tahlil qilishga qaratishmoqda. Bunday tadqiqotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad, dunyo xalqlarining bugungi kungacha shakllanish, taraqqiy etish jarayonlarining tahlilini tuzib, ilm-fan rivoji uchun muhim maqsadlarni belgilab olishdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbek folklori. T.Mirzayev, Sh.Turdimov: Toshkent, 2019 [13 b].
2. O‘zbek folklori. M.Sulaymonov, o‘quv qo‘llanma: Namangan, 2008 [7 b].
3. Folklor-etnografik jamoalar bilan ishlash uslubiyoti. A.Sunnatullayev, o‘quv qo‘llanma: Toshkent, 2022[8-9 betlar]
4. Colori del Folklore Italiano, Martina Rea: Roma, 2020